



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**BUXORO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-MART
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-mart oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4565,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 93,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,3 % ni tashkil etdi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan sanoat

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 33,0 % ga , ishlab chiqaradigan sanoat – 6,7 % ga va suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning – 8,1 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 225,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	203,0	480,0	277,0
Shag'al, t.	-	-	-



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. so'm	30 303,4	32 500,0	2 196,6

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-mart

FHI,% da



2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4090,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,6 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-mart

94,4 %

2022-yil yanvar-mart

89,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2021- yilning yanvar-mart oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,5 % (1,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 46,7 % (48,5 %) va quyi texnologiyali – 51,8 % (49,7 %)ni tashkil etdi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 33,9 % (2021- yil yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 83,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 30,3 % (2021- yil yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 107,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,3 % (2021- yil yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 97,7 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 9,4 % (2021- yil yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg‘isi



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Avtomobil benzini



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Mazut



2020-y. 2021-y. 2022-y.

O‘simlik yog‘i (tozalangan)



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Likyorlar

Aroq

Uzum vinosi

Paxta linti

Paxta chigiti

Paxta tolasi



2022- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 237,1 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 99,5 % ga), 66,5 ming litr uzum vinosi (67,3 %), 1 394,7 ming litr aroq mahsulotlari (3,8 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Mazut, ming t.	23,9	20,7	-3,2
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	3161,0	2623,0	-538,0
Paxta tolasi, t.	40029,0	35943,0	-4086,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	21920,0	20588,4	-1331,6
Paxta chigiti, t.	60494,0	50246,0	-10248,0
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	13015,3	12538,5	-476,8

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 151,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,7 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 96,4 % ga va ishlab chiqarish hajmi 18,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 108,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 249,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,9% ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 97,7 % ga va ishlab chiqarish hajmi 697,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 31,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 109,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 7,5 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1384,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 113,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 %, fizik hajm indeksi 77,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 31,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 53,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 83,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 76,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 37,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 67,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 33,9 % ni, fizik hajm indeksi 83,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1547,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 129,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 48,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 213,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,7 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 122,0 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1,7	1,8	0,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	394,7	366,9	-27,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	4496,0	3794,9	-701,1
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	122,4	123,8	1,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 15,6 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,2 % ga oshganligi kuzatildi. .

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1899,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 41,6 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-mart

35,3%

2022-yil
yanvar-mart

31,4%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-mart

64,7%

2022-yil
yanvar-mart


68,6%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 9,2 % (2021- yil yanvar-mart oylarida 2,5 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib 32,7 % ni va Buxoro shahri 18,1 % ni, G'ijduvon tumani 11,8 % ni hamda Kogon tumani 5,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich G'ijduvon (108,4 %), Romitan (104,6 %), Olot (100,7 %), Qorovulbozor (100,6 %) tumanlarda va Buxoro shahri (100,5 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 32,7 % shuningdek, Buxoro shahri 18,1 %, G'ijduvon 11,8 % ni, Kogon 5,9 % tumanlari tashkil etdi.



1163,2 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-mart

1599,0 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-mart

1899,5 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-mart



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil 105,9 %

2021- yil 123,5 %

2022- yil 101,5 %

o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 47,0 % shuningdek, Buxoro shahri 15,6 % ni, G'ijduvon tumani 12,4 %, Vobkent tumani 4,3 % ni tashkil etdi.

740,7 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-mart

1034,4 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-mart

1303,8 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart






Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 23,7 % ni, shuningdek, Kogon shahriga 12,7 % ni, Jondor tumani 12,0 % ni, G'ijduvon tumani esa 10,4 % ni tashkil etdi.



Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, 35,2 % ni, shuningdek, Buxoro shahriga 12,6 % ni, G'ijduvon tumani esa 11,1 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyati

2020- yil

3908,7 mlrd. so'm

2021- yil

4077,2 mlrd. so'm

2022- yil

4565,8 mlrd. so'm



2020- yil


105,6 %

2021- yil

87,1 %

2022- yil

93,8 %




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (84 114,9 ming so'm), Kogon shahrida (4 212,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2305,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





o'sish sur'ati

ming. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 959,3 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 32 465,7 ming so'mni, Kogon shahrida – 1 514,0 ming so'mni, Kogon tumanida – 1 367,8 ming so'mni tashkil etdi.

Buxoro viloyati



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 4870 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1270 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,1 % i) Buxoro shahriga, 605 tasi (12,4 % i) G'ijduvon tumaniga, 377 tasi (7,7 % i) Buxoro tumaniga, 371 tasi (7,6 % i) Kogon tumaniga, 357 tasi (7,3 % i) Jondor tumaniga, 350 tasi (7,2 % i) Romitan tumaniga, 293 tasi (6,0 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



yangi tashkil etilgan
faoliyat yuritayotgan

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 148 ta loyiha bo'yicha 420,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,9 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar-mart oylarida 185 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 65,6 % ni tashkil etdi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlik	112	148
Korxonalar soni, birlik	98	134
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	199,0	420,1
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar	4,0	2,9
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	282	185